




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



CONTEMPORARY RELEVANCE OF AIRLAND THEORY

Sherzodbek M. Nurmetov

Student

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Airland, Heartland, Rimland, Aerocracy, Efirocracy, Airspace, Space War, Eurasia.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: The importance and conceptual views of Ireland's theory in modern geopolitics were studied in this article. The development of air space has equalized land and sea to a certain extent. The development of aviation made the earth much "smaller" and distances "shorter". A global strategy based on this geopolitics has led the West to establish a global power. This made the development of "air geopolitics" urgent.

AIRLAND NAZARIYASINING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Sherzodbek M. Nurmetov

Talaba

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Airland, Heartland, Rimland, Aerokrotiya, Efirokratiya, Havo makoni, Kosmik urush, Yevroosiyo.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Airland nazariyasining zamonaviy geosiyosatdagi ahamiyati va konseptual qarashlari o'rnatildi. Havo bo'shlig'inining rivojlanishi quruqlik va dengizni ma'lum darajada tenglashtirdi. Aviatsianing rivojlanishi yermi ancha "kichikroq" va masofalarni "qisqaroq" qildi. Ushbu geosiyosatga asoslangan global strategiya G'arjni sayyoraviy kuchni o'rnatishga olib keldi. Bu esa "havo geosiyosati"ning rivojlanishini dolzarb qildi.

СОВРЕМЕННАЯ АКТУАЛЬНОСТЬ ТЕОРИИ AIRLAND

Шерзодбек М. Нурметов

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Эйрленд, Хартленд, Римленд, Аэрокроция, Эфиоркратия, Воздушное пространство, Космическая война, Евразия.

Аннотация: В статье исследовано значение и концептуальные взгляды теории Ирландии в современной геополитике. Освоение воздушного пространства в определенной степени уравняло сушу и море. Развитие авиации сделало землю намного «меньше», а расстояния — «короче». Глобальная стратегия, основанная на этой геополитике, привела Запад к созданию глобальной державы. Это сделало актуальным развитие «воздушной геополитики».

KIRISH

Airland modeli geosiyosatning dolzARB obyekti dengiz yoki quruqlik emas, balki havo va kosmos bo‘lishini nazarda tutadi. Airland nazariyasi havo makonini nazorat qilish, kosmosni egallashga qaratilgan g‘oyalar, aviatsiya rivojlanishi, havo qurollari haqidagi qarashlarni o‘z ichiga oladi. Inson hayotining zamonaviylashishi natijasida kosmik kemalar, sun’iy yo‘ldoshlar, havo qurollari yaratildi. Sun’iy yo‘ldoshlar aloqa, yerni kuzatish, navigatsiya, fan, texnologik rivojlanish, mudofaa, kosmik tadqiqotlar, boshqariladigan parvozlar kabi muhim sohalarda qo‘llaniladi.

ASOSIY QISM

Geosiyosatning zamonaviy paradigmalarini tahlil qilar ekanmiz, muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan konseptual qarashlarni ham o‘rganish zarur. Xususan, shunday konsepsiya sirasiga Aerokratiya (havo makoni) va Efiokratiyani (Kosmos makoni) kiritish mumkin. Aerokratiya va Efiokratiyaning rivojlanishida Heartland va Rimland modellari katta ro‘l o‘ynadi. H.Makkinder o‘zining “Tarixning geografik o‘qi” nomli maruzasida Heartland nazariyasini yoritib berdi. Uning qayd etishicha, butun jahon nuqtai nazaridan yerning markazida Yevroosiyo qit’asi, uning markazida esa “Heartland” (Yerning yuragi) joylashgan. Shundan kelib chiqib H. Makkinder konsepsiyasini quyidagicha ta’riflagan: “*Kim Sharqiy Yevropada hukmronlik qilsa, u “Heartland” ustidan hukmronlik qiladi, kim “Heartland” ustidan hukmronlik qilsa, dunyo orollarrini boshqaradi, dunyo orollarini boshqargan, butun dunyonи boshqaradi*” [1. H.Mackinder, 1919, p.186] H.Makkinderning bu geosiyosiy qarashi Yevroosiyo qit’asiga qaratilgan edi. H.Makkinder modelidan farqli ravishda N.Spaykmen geosiyosiy qarashini asosan

Rimland ya’ni qirg‘oqbo‘yi hududlarga qaratdi. “*Kim Rimland ustidan hukmron bo‘lsa, Yevroosiyo ustidan hukmron bo‘ladi, kim Yevroosiyoni boshqarsa, u dunyo taqdirini o‘z qo‘liga oladi*” [2. N.Spykmen, 1942, p.41] Ushbu ikki konsepsiya ham asosiy e’tiborni Yevroosiyo hududiga qaratgan. Bunday qiziqishlarning asosiy sababi Yevroosiyoda sodir bo‘layotgan geosiyosiy tendensiyalar bilan bog‘liqligidadir. Airland nazariyasi Heartland va Rimland nazariyalaridan farqli ravishda Yevroosiyo ustidan nazorat faqat quruqlik yoki dengizdan emas balki havo va kosmosdan bo‘lishini nazarda tutadi. Airland nazariyasining asoschisi S.Bo‘ronov o‘zining “O‘zbekiston geosiyosati” kitobida Airland formulasining mohiyatini quyidagicha ta’riflagan: “*Kim Heartland yoki Rimlandga hukmronlik qilishni istasa, Airlandni zabit etishi lozim bo‘ladi. Airland esa jahon boshqaruv kalitidir*”. [2. S. Bo‘ronov, 2021, b.20] Istiqboldagi geosiyosatda Heartland yoki Rimland modellaridan farqli o‘laroq “Airland” modeli ustuvor o‘rin egallaydi. Ushbu uchta konsepsiyaning ham asosiy mazmunida Yevroosiyo hududiga nazorat ko‘zga tashlangan. Yevroosiyo hududining naqadar muhimligini AQShlik geostrateg Z. Bjezinskiy o‘zining “Buyuk shaxmat doskasi” asarida alohida urg‘u berib, Yevroosiyoning geosiyosiy ahamiyatini aytib o‘tadi: “Yevroosiyo yer sharidagi eng katta qit‘a sanaladi va geosiyosiy munosabatda markaziy o‘rinni egallaydi. Yevroosiyoda dunyo aholisining 75 foizi istiqomat qiladi, dunyo tabiiy boyliklarining katta qismi shu yerda va uning ostida joylashgan. Shu tariqa Yevroosiyo o‘zida global boshqaruv uchun kurashga chorlaydigan shaxmat doskasini namoyon etadi” [2. Z. Bjezinskiy, 2019, b.59-63] XXI asrda jahon siyosati asosan Yevroosiyoga hukmronlik uchun kurashdan iborat bo‘ladi. Yevroosiyo jahon qudratining markazi bo‘lib kelmoqda. Turli davrlarda ham Heartland, ham Rimlend nazariyalari Yevroosiyodagi geosiyosiy munosabatlarning obyekti yoki subyekti bo‘lgan. Hozirgi davrda ularning global geosiyosiy jarayonlardagi funksional qiymati mos ravishda o‘zgardi. Shuning uchun hozirgi sharoitda Heartland yoki Rimlandni juda muhim deb ta’riflash qiyin va to‘g‘ri emas. Har ikki nazariyaning bitta va jiddiy kamchiligi bor: ular ob’ektiv global geosiyosiy jarayonlarni tushuntirish niyatida emas. Ular ikki G’arb davlatining (Buyuk Britaniya va AQSh) strategik manfaatlariga xizmat qilish uchun tuzilgan. Aerokratiya va Efirokratiya geosiyosatning zamonaviy paradigmalaridan bo‘lib Airland nazariyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ozarbayjonlik siyosatchi A.Xasanov o‘zining “Geosiyosat” kitobida Aerokratiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Aerakrotiya – Havo makonidan geosiyosiy bosqinchilik niyatida foydalanish. Strategianing bu kuchli omili aviatsiya rivojlana boshlagandan keyin paydo bo‘ldi” [2. A.Xasanov, 2016, b.438] Rossiyalik mashhur siyosatshunos ko‘plab siyosiy konsepsiylar muallifi A.Dugin o‘zining “Geosiyosat” kitobida Efirokratiyaga ta’rif berib o‘tgan, “Efirokratiya – kosmos makonida nazorat o‘rnatish va hukmron bo‘lish” [2. A.Dugin, 2015, b.62]. Italiyalik klassik geosiyosatning yorqin namoyondasi J.Due o‘zining mashhur “Havoda hokimlik” asarini chop ettirdi. Bu asarida u aviatsiyaning zamonaviy urushdagি

ro‘li masalasining geostrategiyasini hozirladi. Uning nazariyasiga ko‘ra davlat aholisining ijtimoiy-psixologik ahvoli va dunyoqarashi davlatning kuch-qudratiga mos holda shakllanadi. Duening nazariyasiga muvofiq, kelgusidagi urushlar piyoda qo‘sishinlar, harbiy-dengiz floti va artilleriya tomonidan emas, ko‘proq aviatsiya tomonidan olib borilishi darkor. Havoda hokimlikni qo‘lga kiritish mamlakat aholisi asosiy qismining ruhiyati ustidan hukmronlikka erishishning asosini tashkil qiladi.

O‘tgan davr mobaynida AQSh, NATO va boshqa mamlakatlarining Koreya, Vyetnam, Yugoslaviya, Afg‘oniston va Iroqda amalga oshirgan harbiy amaliyotlarda asosan havo kuchlaridan va bombardimonchi samolyotlardan foydalanishlari ham, mohiyat e’tibori bilan, Due taklif qilgan “Kelgusi urushlarda havo kuchlarining ro‘li to‘g‘risida”gi nazariyasiga asoslanadi. Bugungi zamonaviy geosiyosatda havo qurollaridan himoyalanish havo makonidan kelgan hujumlarga munosib qarshi turish uchun albatta har bir davlat havo mudofaa tizimiga alohida e’tibor berib zamonaviylashtirib borishi kerak. Ma’lumki Yevroosiyo qit’asida Turkiya va Eron harbiy salohiyati havo mudofaa tizimlari bilan ajralib turadi. Yaqin sharq siyosati va tarixi mavzusida ish olib boruvchi jurnalist P.Iddon o‘zining “Turkey and Iran Show Off Their Homegrown Air Defense Systems” mavzusida yozgan maqolasida Turkiya va Eron havo mudofaa tizimining so‘nggi yutuqlariga to‘xtalib o‘tgan. “Turkiya 2022-yilni mahalliy ishlab chiqarilgan Siper uzoq masofali havo mudofaa raketa tizimini 62mil uzoqlikdagi nishonga muvaffaqiyatlari sinovdan o‘tkazish bilan yakunladi. Sinov Eron o‘zining mahalliy ishlab chiqarilgan Bavar-373ning kengaytirilgan masofaga mo‘ljallangan versiyasini namoyish qilganidan ikki oy o’tmasdan o’tdi, Eron 186mil uzoqlikdagi nishonni muvaffaqiyatlari yo‘q qilganini e’lon qildi. Siper Turkiyaning oxirgi yillarda ishlab chiqqan havo mudofaa raketalari turkumidagi eng uzoq masofaga ega. Shuningdek, jang maydonida askarlarni himoya qilish uchun mos keladigan qisqa masofali, past balandlikdagi mudofaani ham ta’minlaydi. 2019-yil avgust oyida foydalanishga topshirilgan Bavar-373 Eron milliy havo mudofaasida xuddi shunday rol o‘ynaydi. Eron va Turkiya havo mudofaasining muvaffaqiyatlari rivojlanishini tez-tez ta’kidlashdan tashqari, turli vaziyatlarda ularning Siper va Bavar-373 tizimlari hatto Rossianing S-400 bilan raqobatlasha olishini da’vo qilishdi. Turkiya matbuoti har doim Siperni S-400 ga “raqib” sifatida ta’riflaydi. Xuddi shunday, Eron 2019-yilda Bavar-373 ni taqdim etganida, u tizim S-300 dan kuchliroq va S-400 bilan tenglasha olishini da’vo qildi” [2. P.Iddon, 2023, Turkey and Iran...] Anqara va Tehron oxir-oqibatda o‘z tizimlarining variantlarini eksport qilishni rejalashtirmoqda. 2023-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan SİPER Turkiyaning milliy uzoq masofali mintaqaviy havo mudofaa raketa tizimida ilk bor tilga olingan SİPER Blok-I raketasi sifatida maydonga kirib keladi. Turkiya Mudofaa sanoati raisligi rahbari Ismoil Demir 30-dekabr kuni o‘zining twitter sahifasida Siper sinovini maqtab, “Mudofaa sanoatimizdan Turk asriga qadam qo‘yganimiz uchun

millatimizga yangi yil sovg‘asi” deb atadi. [2. I.Demir, 2022, #SIPER Product-1 system]. Harbiy havo kuchlari bugungi ssenariyda har qanday qurolli kuchlarning eng muhim turi hisoblanadi. So‘nggi bir necha o’n yilliklarda bo‘lib o’tgan urushlar haqida gapiradigan bo’lsak, shuni aytishimiz mumkinki, havo hukmronligini qo’lga kiritish barcha armiyalarning birinchi ustuvor yo’nalishiga aylandi. Harbiy texnika tobora puxtarot bo‘lib bormoqda. AQSh kosmik kuchlari qo‘mondoni havo kuchlari generali Jon Raymond kosmosni urush zonasini deb e’lon qildi va Rossiya hamda Xitoyda Amerika sun’iy yo‘ldoshlarini yo‘q qilishga qodir quollar borligidan ogohlantirdi. Bu haqda u Washington Post gazetasiga bergan intervusida ma’lum qildi. “Ko‘rinib turibdiki, kosmik havo, quruqlik va dengiz kabi urush maydoni. Bu so‘nggi bir necha yil ichida haqiqatan ham amalga oshgan narsa, chunki bizning doimiy tahdidimiz bo‘lgan Xitoy ham, Rossiya ham bizning sun’iy yo‘ldoshlarimizning ishlashini buzishi yoki ularni yo‘q qilishi mumkin bo‘lgan quollarni ishlab chiqardi», [2. J.Raymond, 2021, The Way Forward...] So‘nggi bir necha o’n yilliklarda bo‘lib o’tgan urushlar haqida gapiradigan bo’lsak, shuni aytishimiz mumkinki, havo hukmronligini qo’lga kiritish barcha armiyalarning birinchi ustuvor yo’nalishiga aylandi.

Airland nazariyasi amaliyatga o‘tib bormoqda. Hozirgi davrda Ukraina urushi aynan Yevroosiyo hududida bo‘lyotganligi, urushda asosan havodan hujumlar zorbalar berilyotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatining asosiy e’tibori Rossiya va Ukraina harbiy mojarosiga qaratilgan. Rossianing Ukraina bosqini g‘arb davlatlari, AQSh va NATO tomonidan keskin tanqid qilinmoqda va Rossiya agressiyasini jilovlash uchun unga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar paketini qo‘llamoqda. 2022-yil fevral oyida boshlangan bu urush Ukraina suverenitetiga tahdid soladi, balki butun geosiyosiy tartibni buzadi. Rossiya Ukraina harbiy salohiyatini yetarlicha baholamaganligi Rossiya o‘zining geosiyosiy maqsadlariga tez fursatda erishishni ko‘zlab harbiy taktik xatolarga yo‘l qo‘ygani urush oqibatlarini keskinlashtirib yubordi. Mojaro boshlangandan beri Rossiya Ukrainaga uchuvchisiz samolyotlar va raketalar bilan hujum qildi. Bu hujumlar yoz oylarida Rossianing raketa zaxiralari kamaygani sababli kamaygan, keyin esa oktyabr oyida Rossiya ko‘p sonli Eron dronlarini qabul qilganda yana ko‘paygan. Bu so‘nggi hujumlar elektr tarmog‘i va boshqa communal xizmatlarni nishonga oldi, shuning uchun ular Ukraina aholisiga katta ta’sir ko’rsatdi. Bu havo hujumidan mudofaa qobiliyatini yaxshilash bo‘yicha tobora ko‘proq shoshilinch talablarga turtki bo‘ldi. Rossiya raketalari Ukraina shaharlarini vayron qildi, Ukraina hukumati o‘z aholisini himoya qilish uchun qo’shimcha havo mudofaa tizimlarini talab qildi. Qo’shma Shtatlar va NATO bunga ijobiy javob berdi, Qo’shma Shtatlar Stingers, Milliy ilg‘or yerdan havoga raketa tizimi (NASAMS) va S-300larni o‘z ichiga olgan ko‘plab havo mudofaa tizimlarini taqdim etgan. Stinger qisqa masofali portativ havo mudofaa tizimi bo‘lib, nishonni topish uchun infraqizil (issiqlik) ishlatadi. Qo’shma

Shtatlar Ukrainaga 1400 dan ortiq Stinger yetkazib berdi. Ukrainani G‘arb tomonidan qo‘llanilishi Rossiya harbiy salohiyati va iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. Ukrainaga yordam tariqasida yuborilgan mudofaa tizimlari Rossiya raketalarini bemalol urib tushirmoqda. Ukraina urushi davomida Rossiya ko‘plab jangovar yo‘qotishlarga duch keldi umumiylis hisob qiladigan bo‘lsak “212 ta havo mudofaa tizimi, 267 ta vertolyot, 1700 ta dronlar, 653 ta qanotli raketalar, 283 ta harbiy samolyotlar, 414 ta raketa tizimlari” [2. Ministry of defence of Ukraine, 2022, Losses of the Russian...]. Urush asosan havo makoni orqali davom etmoqda. 2022-yilning dekabr oyidagi hujumlar Kiyevning Rossiya hududiga chuqur zarba berish qobiliyatini namoyish etdi, chunki Ukraina Moskvaning keng ko‘lamli bostirib kirishi paytida yo‘qotilgan hududlarni qaytarib olish uchun kurashni davom ettirmoqda. Rossiya o‘z poytaxti mudofaasini kuchaytirmoqda, chunki Putin Rossiya jamoatchiligini Ukrainianaga qarshi uzoq, og‘ir urushga va NATO bilan uzoq davom etadigan qarama-qarshilikka tayyorlamoqda. “Rossiya harbiylari Moskva markazidagi ba’zi mudofaa va ma’muriy binolarning tomlariga Pantsir havo mudofaa tizimlarini o‘rnatgan ko‘rinadi, bu Kremlning Rossiya poytaxtiga ehtimoliy hujumga tayyorlanayotganidan dalolat beradi”. [2. A, Dangwal. 2023, Russia installs Panstir...] Urushda havo hujumlarida Turkiyada ishlab chiqarilgan “Bayraktar TB2” va Eronda ishlab chiqilgan kamikadze dronlaridan foydalanimoqda. Yevroosiyo mintaqasida ko‘plab bahsli hududlar mavjud bo‘lib, oxirgi yillardagi aynan qarama-qarshiliklar to‘qnashuvlar bu mintaqaning ahamiyatini oshirib yubordi. Ukraina urushidan tashqari ko‘p yillardan beri o‘z yechimi topmayotgan Tog‘li Qorabog‘ masalasi ham dolzarb. O‘nlab yillarga cho‘zilgan muvaffaqiyatsiz muzokalar bu muammoning yillar davomida alanga olishiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi to‘qnashuvlarni tahlil qilar ekanmiz Tog‘li Qorabog‘ masalasida vaziyat jiddiyashib Ozarbayjon va Armaniston ham murosaga kelmadidi. Janglar asosan havodon amalga oshirilib havo makoni ahamiyatini oshirmoqda. 2020-yil 7-oktabr kuni Tog‘li Qorabog‘ning asosiy shahri Stepanakert havo hujumlaridan vayron bo‘ldi ko‘plab qurbanlar bo‘lib, odamlar uysiz qoldi. Armaniston va Tog‘li Qorabog‘ qurolli kuchlari asosan Rossiyada ishlab chiqarilgan harbiy texnika va qurollar, jumladan S-300 zenit-raketa majmualari bilan jihozlangan. Tog‘li Qorabog‘dagi birinchi urushdan keyin Ozarbayjon o‘z neft mablag‘larini harbiy sohada Armanistondan o‘zish uchun sarfladi. Ozarbayjon Turkiyadan faol ravishda qurol sotib oldi, to‘qnashuvlarda qo‘llangan “Bayraktar” dronlari shular jumlasidandir. Bu dronlar Rossiyaning S-300 tizimidan ustunligini yaqqol namoyish qildi. 2020-yil 27-sentabr kuni boshlangan to‘qnashuvning dastlabki uch kunida Ozarbayjon qurolli kulari Armaniston yoki Tog‘li Qorabog‘ning 130 ta tanki yoxud boshqa zirhli texnikasi, 25 ta havo mudofaasi tizimi va boshqa harbiy uskunalarni yo‘q qilgan. Ozarbayjon foydalangan turk dronlari muntazam ravishda Rossiya havo mudofaasi tizimlarini hamda ularga bog‘liq bo‘lgan Armaniston va Tog‘li Qorabog‘ askarlarini portlatgan. 2022-yilga kelib bir necha o‘n yillardan beri dunyodagi eng «qaynoq

nuqta»lardan biri bo‘lib qolayotgan Armaniston-Ozarboyjon chegarasidagi vaziyat yana keskinlashdi. 2022-yilning 13-sentabriga o‘tar kechasi Armaniston-Ozarboyjon chegarasida navbatdagi to‘qnashuvlar boshlandi. Har ikki tomon bir-birini ayblagan ushbu mojaro ancha jiddiy tus oldi. Ozarboyjon bu safar nafaqat chegara shaharlari, balki o‘zi ham Armaniston hududi deb tan oluvchi Jyermuk va Vardenis shaharlariiga ham zarba berdi. Ozarboyjon dronlari Armanistonning chegara pozitsiyalari va ta’minot nuqtalarini nishonga oldi. Mintaqadagi xavfsizlikka kafil bo‘lishi kerak bo‘lgan rasmiy Kreml bu ishni uddalay olmadi. Natijada har ikki tomondan 280 dan ortiq odam halok bo‘ldi. Yerevan va Boku kuch ishlatishdan tiyilishga kelishib olgan bo‘lsa-da, ozar-arman chegarasidagi vaziyat istalgan payt yanada keskinlashishi mumkin. Bo‘lib o‘tgan mojarolar to‘qnashuvlar Yevroosiyo hududining nechog‘lik ahamiyatli ekanligini isbotlab berdi. Aynan Heartland, Rimland va Airland nazariyalari bekorga bu mintaqaga qaratilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Havo maydoni bu mamlakatning quruqlikdagi va suvi ustida joylashgan barcha bo‘sh joy. O‘zining bepayonligi tufayli u mamlakat hududining muhim qismini anglatadi. Bu orqali mojaro, bosqinlar yoki axborotni kuzatish paytida havo hujumlari amalga oshirilishi mumkin. Havo hududi davlatlarning xavfsizligi uchun katta ahamiyatga ega maydonni anglatadi. Havo maydoni juda sezgir sohadir, u ko‘pincha to‘liq aniqlanmagan. Bunday holda, quruqlikdan farqli o‘laroq, ko‘rinadigan chegara chizig‘i yo‘q. Bu millat xavfsizligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Agar e’tiborsiz bo‘lsa, bosqinlar yoki havo hujumlari sodir bo‘lishi mumkin. Davlatlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda bиринчи bo‘lib havo maydoniga ta’sir ko‘rsatiladi, chunki u orqali hujum qilish osonroq. Havo maydoni ham tijorat va yuk samolyotlarining parvozi uchun kanaldir. Shu sababli, u mamlakatning iqtisodiyotini boyitish vositalaridan biridir.

XULOSA

Hozirgi geosiyosat quruqlik va dengizdan tashqari yana ikkita elementni havo va kosmosni hisobga olishga majbur. Havo geosiyosati havo muhitini va u bilan bog‘liq strategik aviatsiya qurollarining yangi turlari, qit’alararo raketalar va yadroviy qurollarning rivojlanishini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Kosmik fazoni strategik tadqiq qilish havo maydonining ahamiyatini oshirdi. Kosmosda ustunlik uchun raqobat muqarrar ravishda yuqori texnologiyalar sohasidagi raqobatga olib keldi. Zamonaviy aerokratiya axborot sohasidagi kuch bilan chambarchas bog‘liqligini tushunish zarur. Yuqori texnologiyalar joriy etgan barcha so‘nggi aloqa turlari televiedeniya, radio, kompyuter, telefon havo yoki kosmos orqali amalga oshiriladi. Davlatning milliy havo makonining xavfsizligi uning harbiy-kosmik, iqtisodiy va ma’daniy-axborot makoni xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqdir. Butun milliy havo makoni, shu jumladan aeraportlarning, chegara elektron-axborot, signal va mudofaa sistemasining xavfsizligini ta’minalash davlatning suveren huquqlarining asosiy elementlaridan biri va uning qudratining timsoli hisoblanadi. Mamlakat

milliy xavfsizligini ta'minlashda harbiy havo kuchlarining ro'li alohida ta'kidlanadi. Havoda harbiy-strategik ustunlikka erishgan davlatgina urushda nafaqat urushda boshqa sohalarda ham g'olib bo'ladi. Yer yuzasida mavjud kosmodromlar, kosmik raketalar va planetalaro ballistik raketalarni uchirish infratuzilmasi jahon kosmik makonini nazorat qilishda alohida geosiyosiy ro'l o'ynay boshladi. Airland nazariyasini tahlil qilar ekanmiz havo makonidan faqat harbiy yoki mudofaa maqsadida emas balki, tinchlik yo'lida aviatsiyani rivojlantirish maqsadida ham foydalansa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Dangwal. (2023 January 20) Russia installs Panstir Missile Defense System Atop Moscow Skyscrapers Amid Fears of Ukrainian Strikes. Retrieved from <https://eurasiatimes.com>
2. Bjezinskiy.Z. (2022) "Buyuk shaxmat doskasi" Ingliz tilidan "Sharqshunos tahlilchilar" jamoasi tarjimasi, Toshkent: Tirilish
3. Bo'ronov.S. (2021) O'zbekiston geosiyosati: Toshkent: EFFECT-D
4. Dugin, A. (2015) Geopolitika: Moskva: Akademik loyiha.
5. Mark F, Cancian. (2022 October 17) Can the United States do more for Ukrainian Air defense? Retrieved from <https://www.csis.org>
6. Mark F. Cancian and T.Karoko. (2022 December 16) Patriot to Ukraine: What does it mean?. Retrieved from <https://www.csis.org>
7. P, Iddon. (2023 January 2) Turkey and Iran Show Off Their Homegrown Air Defense Systems. Retrieved from <https://www.forbes.com>
8. R, Dixon. (2023 January 20) Air defense deployed in Moscow signaling fear of strikes on capital. Retrieved from <https://www.washingtonpost.com>
9. Raymond, J. (2021, 30-aprel) The Way Forward: Space Forces with General John Raymond, Chief of Space Operations. The Washington Post live. Retrieved from <https://www.washingtonpost.com/>
10. Xasanov, A. (2016) Geosiyosat: Toshkent: Tamaddun.